

YUSUF ZIYO ORTACH IJODIDA KURASHCHAN QAHRAMON TALQINI

Rajabov foziljon ulash zoda

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turk adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan Yusuf Ziyu Ortach ijodida kurashchan qahramon talqini va lirik qahramon muammosi o'rganilgan. Shoir yashagan davr haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ijodkor yashagan davrdagi qiyinchilik va muammolar, lirik qahramon, ijodkor mahorati, she'rlarida so'z qo'llash bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbek adabiyoti, turk adabiyoti, she'r, shoir, lirik qahramon, aruz, barmoq, ijodkor shaxsiyati.*

Аннотация: *В данной статье исследуется интерпретация лирического героизма и проблема лирического героя в творчестве Юсуфа Зия Ортача, находящего свое место в турецкой литературе. Кратко рассмотрен период, в котором жил поэт. Особое значение придается вопросам, связанным с трудностями и проблемами времени жизни художника, лирическим героем, мастерством художника, употреблением слова в его стихах.*

Ключевые слова: *узбекская литература, турецкая литература, поэзия, поэт, лирический герой, мечта, палец, творческая личность.*

Annotation: *In this article, the interpretation of the lyrical heroism and the problem of the lyrical hero in the works of Yusuf Ziya Ortach, who has his place in Turkish literature, are studied. The period in which the poet lived was briefly discussed. Special importance is given to issues related to the difficulties and problems of the time of the artist's life, the lyrical hero, the artist's skills, and the use of words in his poems.*

Keywords: *Uzbek literature, Turkish literature, poetry, poet, lyric hero, dream, finger, creative personality.*

Insoniyat yaralibdiki, uning hayoti turli qarama-qarshilik va ziddiyalardan iborat. Hayot yo'lida duch keladigan qiyinchiliklar kishilarni matonatli va bardoshli qilib tarbiyalab boradi. Har davrning o'ziga xos bo'lgan murakkabliklari bo'lib, ba'zan qurg'oqchilik tufayli insonlar qirilib ketishgan bo'lsa, ba'zan yuqumli kasalliklar sababli halok bo'lishgan. Turkiyada mustaqillik uchun bo'lgan janglarda askarlar bir qarich tuproq uchun jon berib kurash olib borarkan, ayollar uyida jim qarab o'tirgani yo'q. Ular o'q dori yasab mard o'g'lonlarga yurt himoyasi uchun yordam berishdi. Shuningdek, ijodkorlar ham askarlarni ruxlantirish uchun she'r-u qo'shiqlar, asarlar yozib harbiylar orasida yurishdi.

Yusuf Ziyu Ortach ham XX asr boshida yozgan asarlarining aksariyatida kurashchan qahramon tasviri alohida ajralib turadi. Bu kurashchan qahramon insonlarni birdamlikka, hamjihatlikka, o'zaro kelishmovchiliklarga barham berishga, ba'zi illatlardan qutilishga yurt himoyasi, mamlakat rivoji uchun kurashga chorlaydi. Albatta, har bir shoir she'rlarida o'zining qalbidan kechgan his-tuyg'u, o'y-hayollarini bevosita yoki bilvosita bayon etadi.

Qalbida vatanga bo'lgan muhabbat bo'lmagan insondan hech qachon yillar davomida unutilmaydigan ijod mahsuli hosil bo'lmaydi.

Yusuf Ziy o'qib qalbida o'ti bor ijodkorlardan edi. Buni uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Shoir qalamiga mansub "Shairlere"⁸⁰ ("Shoirlarga") nomli she'rida shoirlarga xitoban shunday misralar bitadi:

*Ey shair, ugraşma kendi derdinle;
Milletin ağlayan kalbini dinle.
Bak hudutlar tıpkı bir kızıl yara,
Ölüm kanat germiş bu şen diyara!*

Tarjimasi

Ey shoir, mashg'ul bo'lma o'zingning dardingla,
Millatning yig'lagan qalbin tingla.
Qara tuproqlar go'yo qizil yara,
O'lim qanot yoygan shonli diyorga!

Shoirning qalbida yonayotgan otash uni chetdan jim qarab turishga yo'l qo'ymaydi. Atrofidagi ijodkor hamkasblarini ham butun e'tiborini yurt himoyasiga qaratmoqchi bo'ladi. Shoirlarga qarata "Ey, shoirlar bo'ldi endi, qachongacha o'z dardlaringni doston qilasiz?! Millatning dardini tinglash fursati yetdi. Tuproqlar begunoh insonlarning qonlari bilan qizardi. Butun yurtni o'lim qo'rquvi chulg'adi. Endi jim qarab o'tirib bo'lmaydi. Bu ulug' makon o'z himoyachilarini kutmoqda deya davom etadi..

*Atılmış meydanlara yüzbinlerce genç,
Kalbinde şehitlik için bir özenç!
Bir yanda yuvaları yıkılmış, yanmış;
Günahsız kanlarla toprak boyanmış!*

Tarjimasi:

*Otilgan maydonlarga yuzminglagan yosh,
Qalbida shahidlik uchun bir sog'inch!
Bir yonda uylari yonib yiqilgan;
Gunohsiz qonlarga tuproq bo'yangan!*

Shoir keyingi baytlarida yuz minglab yoshlar o'z jonlarini vatan uchun hech ikkilanmay fido qilish uchun jang maydonlariga otlanganliklarini ta'kidlab, shahidlik maqomiga yetishishni sog'inch bilan kutayotganliklarini lirik qahramon tilidan so'zlaydi. Shoir yigitlarning uylari yonib kul bo'lganligini begunoh qonlar to'kilganini aytadi. Lirik qahramon ruhining tashqi dunyo bilan muloqoti va ichki ziddiyatlar girdobida azoblanish manzaralari aks etgan. Ana shu, ruhiy istiroblar isyoni asta-sekin o'quvchi qalbiga ko'chadi.

Shoir qalamiga mansub "Sultan Osman'in ruyasi"⁸¹ ("Sulton Usmonning tushi") nomli she'rida o'tmishga nazar tashlab yoshlarni qanday qudratli va ulug' tarixga ega ekanliklarini eslatib o'radi.

⁸⁰ Ortaç Yu.Z. Yaşamı, sanatı, yapıtları. Engin Yayıncılık, İstanbul-1997. – S.121.

*Bir vakirler bu toprağın bizlerdik beyi
Oklarımız karartırdı şu gök kubbeyi!
Mazimiz bir gürültü destanla dolu
Kahramanlar ocağıdır bu Anadolu!*

Tarjimasi

*Bir zamonlar bu tuproqning biz edik beyi
O'qlarimiz qorartirar bu ko'k qubbani
Moziyimiz shonli dostonla to'la
Qahramonlar o'chog'idir bu Anadolu!*

Ulug' o'tmishni yodga olgan lirik qahramonning hislari nihoyatda maftunkor, tuyg'ulari betakror, ruhiy olami isyonkordir. Bunda bazan u goh tarix zarvaraqlarini birma-bir varoqlash bilan, goh hayajon, ehtiroslar tizginini qo'ldan chiqarish, goh faylasufona mushohada olamida qolib, o'y-fikrlarini tarixdan zamonga zamondan tarixga ko'chirish jarayonida kashf etib boradi. Uning ruhiy olami ranglari o'quvchini ham ruhlantirib tarix bilan zamona uyg'unligida davr dardlarga oshno qiladi. Lirik qahramon tarixga nazar tashlar ekan qanchalik ulkan qo'shinga ega bo'lganliklarini, bu yurtlarni qo'lga kiritib davlat tuzgancha ota-bobolarining ozmumcha mehnat qilmaganliklarini xotirlatadi. Anadolu har doim qahramonlar o'chog'i ekanligini ta'kidlab, Usmoniylarning mashhur sultonlari Usmon, Fotix Sulton Mehmet, Sulaymonshox kabilarga ishora qiladi.

Lirik qahramon uyqusida bir tush ko'radi, unda unga piri tomonidan bir mujda aytiladi. Anadolu hududlarini birlashtirib ulkan saltanat qurush vazifasi topshiriladi.

*Bu illerde yeni güneşler açar,
Saltanat nurunu eflake saçar
Karanlık geceler ürperip kaçar
Damarlarda yanan vahdetin kanı!..*

Tarjimasi

*Bu hududlarda yangi quyoshlar chiqar,
Saltanat nurini ko'klarga sochar
Qorong'u tunlar qo'rqib qochar
Tomirlarda yonar vahdatning qoni!*

Lirik qahramon ezgu umidlar bilan kelajakka nazar tashlaydi. Yangi quriladigan saltanatning mamlakatga tinchlik, osoyishtalik keltirishiga ishonadi. Qoring'i tunlar qo'rqib qochini omon kunlarning kelishini aytib o'tadi. Ijodkor bu yerda ham insonlar qalbida o'z she'rlari bilan umid uchqunlarini yoqishga uringanligiga guvoh bo'lamiz. Umuman olganda ildizi baquvvat daraxt uzoq yashaydi. O'z o'tmishi, tarixidan ajralmagan xalq ham shunday.

Ijodkor shaxsiyatidagi kurashuvchanlik ruhining ustunligi uni har doim oldinga intilishiga turtki beradi. Boshidan o'tkazgan qiyinchiliklar, hayot sinovlari oldida o'zini

⁸¹ Önal M. *Yusuf Ziyâ Ortaç*. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınlan, Ankara-1986. – S.8.

yo'qotib qo'ymaydi. Ijoddan to'xtamaydi. Uning shaxsiy va ijodiy hayotini o'rganish natijasida shunga amin bo'ldikki, Yusuf Ziyò ijodini she'r bilan boshlab, urush yillarida qalbiy nidolarini she'r vositasida ifoda etadi. Keyinchalik mamlakat o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, dushman hujumlaridan qutilgandan so'ng ijodida burilish yasab, noshirlik faoliyatiga urg'u beradi. Hajviy jurnallar chiqarib poraxo'r amaldorlar, soxta olimlar, ikkiyuzlamachi insonlar, ustidan kuladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortaç Y.Z. Bir Rüzgar Esti. Akbaba Yayınevi, İstanbul-1962.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2005.
3. Çıkla S. Şair, Mizah Yazarı, Gazeteci Yusuf Ziya Ortaç. Kitabevi Yayınları, İstanbul-2010.
4. Önal M. Yusuf Ziyâ Ortaç. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, Ankara-1986.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademya nashr, T-2010.